
Mustaqillik shodiyonasi Rishton tumanida keng nishonlandi

□ Rishton tumanida “Markaziy” o’yingohda yurtimiz bo’ylab “Yangi hayot uchun, Yangi O’zbekiston uchun” shiori ostida keng nishonlanayotgan O’zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 32 yilligiga bag’ishlangan tuman bayram tadbiri bo’lib o’tdi.

???? Bayramni Rishton tumani hokimi Bahodir Xoliqov kirish so’zi bilan ochib, shodiyona ishtirokchilari va ularning timsolida barcha tuman ahlini ulug’ ayyom bilan samimiy muborakbod etdi.

Tadbirda Qирг’изистон Respublikasidan kelgan mehmonlar ham ishtirok etishdi.

???? Bayram tadbiriga tuman madaniyat bo’limi xonandalari, milliy estradamiz yulduzlari Abdujalil Qo’qonov, Jo’rabek Qodirov, yosh ijodkor Alibobo ishtirokidagi kuy-qo’shiqlar yanada fayz baxsh etdi.

✍ Tinch-osoyishta hayot, farovonlik ramzi sifatida tumanimiz osmoni uzra turfa rangli bayram mushaklari ajib nur taratdi.

✍ Eng ulug’, eng aziz bayram tadbirlari mahalla va maskanlarda davom etmoqda.

2023-08-28 10:54:26